



TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

TISU ILMIY TADQIQOTLARI XABARNOMASI

ILMIY-USLUBIY JURNAL
ISSN 2992-9016

№1/2026

Muassis:
TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi
Ilmiy-uslubiy jurnal
Bosh muharrir:

Sattarov Abdusamat
Umurqulovich

Bosh muharrir o'rinbosari:
Qobulov Eshbolta Atamuratovich

Mas'ul kotib:

Turayev Baxtiyor Ergashevich
Dizayner:

Meyliqulov Shahboz
Xolmamatovich

Jurnal bir yilda to'rt marotaba
nashr etiladi

Jurnal O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligining
2023-yil 1-martdagi № 066379-
raqamli guvohnomasi bilan ro'yxatga
olingan va O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya
komissiyasi rayosatining 2025-
yil 8-maydagi 370/5-sonli qarori
bilan ro'yxatdan o'tkazilgan
hamda iqtisodiyot fanlari bo'yicha
dissertatsiyalarning asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan
milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga
kiritilgan.

Jurnal "Termiz Publishing center"
MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Bosishga ruxsat etildi:

31.03. 2026.

Qog'oz bichimi: 60x84 1/8

"Times New Roman" garnituruasi.

Ofset bosma.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i: 11.

Adadi 100 nusxa.

Bahosi kelishilgan narxda.

Buyurtma № 4.

Jurnalning elektron shakli bilan

<https://scientific.tues.uz>

web saytida tanishish mumkin.

Tahririyat manzili:

Termiz sh., "Yulduz" MFY,
"Ibn Sino" ko'chasi, 38B-uy.

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

Ixtisham Ul-Haq – i.f.d., prof. (Pokiston)
L. Narrada Gamage – i.f.d., prof. (Shri Lanka)
Xudoyqulov S.K. – i.f.d., prof.
Pardayev J.M. – i.f.f.d., (PhD). dots.
Toshqulov A.H. – i.f.d, prof.
Absamatov A.E. – i.f.d., dots.
Ruzmetov B. – i.f.d. prof.
Abdullayev I.S. – i.f.d., prof.
Ro'ziyev O.A. – i.f.n., dots.
Otamurodov Sh.N. – i.f.d., dots.
Shodiyev A.A. – i.f.d., dots.
Bakirov P.U. – f.f.d., prof.
Qodirov U.D. – p.f.d., prof.
Turopova S.K. – f.f.d., dots.
Mamadjanova T.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.
Jurayev X.A. – i.f.f.d. (PhD), dots
Yarmatov Sh.CH. – i.f.f.d (PhD).
Amonov M.O. – i.f.f.d. (PhD).
Absamatov As.E. – i.f.f.d (PhD)
Rahmatullayev B.Ch. – i.f.f.d. (PhD).
Xoliyorov E.Ch. – f-m.f.n., dots.
Esanov A.A. – f.f.f.d. (PhD), dots.
Xudoyberdiyev U.T. – t.f.f.d. (PhD)
Namozov G'.Sh. – i.f.f.d. (PhD), dots v.b.
Xayrullayev I.N. – f-m.f.n., dots.
Bozorov S.B. – f.f.f.d. (PhD)
Sattarova Y.A. – f.f.f.d. (PhD), dots.
Eshkurbanov S.B. – t.f.f.d. (PhD), dots.
Saloxitdinova N.M. – p.f.f.d. (PhD), dots.
Madiyeva M.Y. – f.f.f.d. (PhD), dots.
Xakimov Z.I. – i.f.f.d. (PhD), dots.
Yormatov F. J. – t.f.n., dots.
Xoshimxo'jayeva M. –f.f.f.d. (PhD), dots.
Ismoilov B.T. – p.f.f.d. (PhD), dots.
Salomov G'. Y. – p.f.f.d. (PhD), dots.
Uralova O. P. – f.f.d (DSc), dots.
Xolov O.Ch. – p.f.f.d. (PhD), dots.
Usmonov M. Q. – p.f.f.d. (PhD), dots.
Abdusamatov A.S. - p.f.f.d. (PhD). dots.
Norkulova Sh. T. – f.f.f.d. (PhD)
Shoturayev J. – p.f.f.d. (PhD).
Abduraxmanov A.Y. – t.f.f.d. (PhD).

MUNDARIJA

N.A. ABDURAIMOVA, M.N. KARIMOVA

Tadbirkorlik subyektlarida moliyalashtirishni takomillashtirish asosida aholi bandligini ta'minlashning iqtisodiy tahlili.....5

N.A. ABDURAIMOVA, M.T. RO'ZIYEVA

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili.....10

G.A. AXMETOVA

O'zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash omillari.....16

S.R. BOYPO'LATOV

Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishda innovatsion va raqamli texnologiyalarning roli.....21

M.SH. CHORIYEVA

Eksport salohiyatidan samarali foydalanish orqali iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish omillari.....26

N.X. DO'SMUXAMEDOVA

Nodavlat notijorat tashkilotlarida xarajatlar hisobini samarali yuritish omillari.....32

B.A. ERDANAYEV

Hududiy rivojlanishda drayver tarmoqlarning o'рни va ularni shakllantirishning nazariy-amaliy asoslari37

N.N. ESHQULOVA, SH.B. ABDUNABIYEV

Mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasi va xizmatlar eksporti dinamikasi tahlili.....42

M.X. KURBOSHEVA

Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlarini kreditlashning nazariy-metodologik asoslari.....47

O.J. MURODOV, H.I. G'ULOMOV

Paxta tozalash korxonalarida moliyalashtirish-innovatsiya uzilishi: O'zbekiston agroklastarlari misolida empirik tahlil.....52

SH.S. MUZRAPOVA, N.S. MUZRAPOVA

Ekonometrika ta'limida interaktiv va amaliy matematika asosidagi yondashuvlarning samaradorligini baholash.....59

Z.M. NORALIYEVA

Qishloq joylarni rivojlantirish va aholi turmush sifatini yaxshilashda kichik biznes samaradorligini oshirish yo'llari.....66

A.P. PARDAYEV

O'zbekiston bank tizimini strategik transformatsiya jarayonining tahlili.....74

J.R. SAYFIYEV

Agile transformatsiya jarayonidagi kutilayotgan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari.....77

A.A. SHODIYEV, B.A. SHODIYEV

Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobining o'ziga xos xususiyatlari.....82

B.E. TURAYEV

Iqtisodiy o'sish omillarini kobb-duglas modeli asosida ekonometrik baholash.....89

Z.I. XAKIMOV

Qishloq xo'jaligida innovatsion faoliyatni moliyalash yo'nalishlari.....93

N.A. XAKIMOVA

Fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab - quvvatlashda subsidiya amaliyotini takomillashtirish.....98

SH.D. XAYDAROVA

Maishiy xizmatlar sohasida tadbirkorlikni rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari.....103

L.L. XAYRULLAYEVA

Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda yashil iqtisodiyot yondashuvi va an'anaviy iqtisodiy model.....107

Y.Z. XUDAYAROVA

Asalarichilik samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni lasso regression modeli asosida tahlil qilish.....112

R.A. XURRAMOV

Hududlar kesimida eksport mahsulotlarining daromadlilik darajasini prody indeksi asosida statistik tahlil qilish.....116

G.A. YUSUPOV

Uzoq muddatli aktivlarda adaptiv amortizatsiya usuli.....122

MUNDARIJA

SH.E.BOBOMURATOVA

O'zbekiston va uning chegara mamlakat hududlarida til siyosati.....126

D.MUQUMOVA

Ja'far Muhammad Termiziyning "Mendagi Boysun" she'ri: lingvistik tahlil.....134

D.B.IBODULLAYEVA

O'zbek va ingliz tillaridagi teatr atamalarining chog'ishtirma tahlili.....137

Z.M.AMIRKULOVA

"Panoh" hikoyasida tarixiy voqe'lik va badiiy talqin uyg'unlashuvi.....140

M.A.MEYLIQULOVA

O'quvchilarda adabiy nutqiy kompetensiyani rivojlantirish masalalari.....144

SH.A.DONAYEVA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda 4K modelining ahamiyati.....147

G.E.TURAYEVA

Texnologiyalashgan jamiyatda bo'lajak o'qituvchilarning axloqiy tarbiyasini shakllantirish150

M.X.XAYDAROVA

Magistratura talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish.....153

F.A.XAYITOVA

O'quvchilarda kreativ o'qish madaniyatini shakllantirishning milliy va jahon tajribasi.....157

D.R.YUNUSOV, J.I.UMIROV

Fanni o'qitishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish.....160

F.E.JOMONQULOVA, S.B.UZAKOVA

Yoshlarni axborot xurujlaridan asrash, ularda axborot imunitetini shakllantirishda zamonaviy usullardan foydalanishning o'рни.....164

U.A.TASHBAYEVA

Boshlang'ich sinflarda bolalar adabiyotini o'rgatishda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanish metodikasi.....169

SH.T.TOSHOVA

Talabalarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari.....173

R.I.ESONOVA, N.M.SALOXITDINOVA

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni 4K modeli asosida tashkil etish metodikasi va baholash mexanizmlari.....176

G.Z.ERMATOVA, G.E.TURAYEVA

Elektron resurslar asosida ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish usullari.....180

D.D.NORQUVATOVA, N.M.SALOXITDINOVA

STEAM yondashuvining boshlang'ich matematika ta'limidagi ahamiyati.....187

M.O.ZARIPOVA, N.M.SALOXITDINOVA

Zamonaviy ta'limda baholash tizimlarining transformatsiyasi va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....190

M.A.NORBOSHEVA, N.ABDIYEVA

Giperaktiv bolalar bilan olib boriladigan psixologik-pedagogik ishlar.....194

G'A.MAMARAJABOV

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda hunarmandchilikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va amaliy tajriba.....198

T.J.YARMATOV, F.J. YARMATOV

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu Lug'atit Turk" asari etnofolklor manba.....202

SH.T.YAKUBOVA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyat shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....205

N.B.RAUPOVA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy qadriyatlarga bo'lgan munosabatini shakllantirish metodikasi ("Qutadg'u bilig" va "Hibat ul-haqoyiq" dostonlari namunalari misolida).....208

M.SH.BURIYEVA

The role of code-switching in Uzbekistan's diverse society: identity and cultural exchange.....213

Z.M.ALLAYEV

Traditions of dream interpretations in linguoculturology.....218

Z.F.ERGASHEVA, G'Y.SALOMOV

Ona-tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi.....221

L.A.RAIMOV

A comparative analysis of ai and human translation in advertising texts.....225

A.A.QARAQULOV

Mengziyo Safarov qissalarida ona-tabiatning poetik manzarasi.....229

N.A.UMAROVA

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar darslarida loyiha faoliyatini tashkil etish nazariyasi va metodikasi.....234

M.T.MENGNAROVA

Ingliz va O'zbek tillaridagi rang komponentli maqollarda madaniy birliklarning ahamiyati.....238

I.B.JURAEV

The effect of authentic materials on vocabulary acquisition in english classes.....242

D.A.BADALOV

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda, klaster metodida yondashish.....248

F.J. YARMATOV, T.J. YARMATOV

Dostonchilik an'analari shakllanishining tarixiy asoslari.....252

M.O.BEGALIYEVA

Pattakesar.....257

Termiz davlat universiteti, Mustaqil tadqiqotchisi
Kurbosheva Mohira Xafizovna
E-mail: kurbashevamoxira77@gmail.com

TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI KREDITLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada kichik biznes subyektlarining iqtisodiyotdagi o'рни va kreditga bo'lgan ehtiyojlari, tijorat banklari faoliyatida kichik biznes subyektlarini kreditlash amaliyotining nazariy-uslubiy asoslari va kichik biznes subyektlarini bank kreditlari orqali qo'llab quvvatlashning rivojlangan xorijiy davlatlar tajribalari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Tijorat banklari; kichik biznes, kreditlash mexanizmi, moliyaviy resurslar; kredit siyosati; kredit riski; foiz stavkalari; to'lov qobiliyati.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ КРЕДИТОВАНИЯ СУБЪЕКТОВ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА КОММЕРЧЕСКИМИ БАНКАМИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье изучены роль субъектов малого бизнеса в экономике и их потребность в кредитных ресурсах, теоретико-методологические основы практики кредитования субъектов малого бизнеса в деятельности коммерческих банков, а также опыт развитых зарубежных стран по поддержке субъектов малого бизнеса посредством банковских кредитов.

Ключевые слова: Коммерческие банки; малый бизнес; механизм кредитования; финансовые ресурсы; кредитная политика; кредитный риск; процентные ставки; платежеспособность.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF LENDING TO BUSINESS ENTITIES BY COMMERCIAL BANKS ANNOTATION

ABSTRACT

This article examines the role of small business entities in the economy and their need for credit resources, the theoretical and methodological foundations of the practice of lending to small business entities in the activities of commercial banks, as well as the experience of developed foreign countries in supporting small business entities through bank loans.

Keywords: Commercial banks; small business; lending mechanism; financial resources; credit policy; credit risk; interest rates; solvency.


KIRISH

Jahonda rivojlangan davlatlar iqtisodiyotining barqaror o'sishida kichik biznes subyektlari muhim drayver sifatida e'tirof etiladi [1]. Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) va Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha yangi ish o'rinlarining 60–70 foizi kichik bizneslar hissasiga to'g'ri keladi [2]. Shu sababli ularni moliyaviy resurslar, xususan bank kreditlari bilan ta'minlash global darajada dolzarb masalalardan biridir. Rivojlangan davlatlarda (AQSh, Yevropa Ittifoqi, Yaponiya) ham, rivojlanayotgan mamlakatlarda (Hindiston, Indoneziya, Afrika mamlakatlari) ham kichik biznesni qo'llab-quvvatlash milliy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishiga aylangan [3] Rivojlangan davlatlarda kichik

biznes subyektlari faoliyatining 80 foizidan ortiq qismi tijorat banklarining kreditlari hisobidan moliyalashtiriladi [4]

Bugungi kunda tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish bo'yicha ilg'or bank xizmatlarini ko'rsatish borasida jadal raqobat muhiti takomillashmoqda.

Rivojlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlar bank amaliyoti shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari kreditlash jarayonining samaradorligini oshirish va uni zamonaviy iqtisodiy sharoitlarga moslashtirish bo'yicha bir qator ustuvor yo'nalishlar shakllanmoqda. Mazkur yo'nalishlar doirasida bank kreditlari sifatini yaxshilash, kredit risklarini minimallashtirish, kichik biznes subyektlarining kreditga



layoqatlilikini xolisona va ishonchli baholash metodologiyasini takomillashtirish hamda kreditlash jarayonini bank uchun optimal daromad keltiruvchi strategik mexanizm sifatida tashkil etish masalalari alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini kreditlash jarayonini takomillashtirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bank-moliya tizimidagi islohotlar iqtisodiyotni rivojlantirishda banklarning rolini kuchaytirib, ularning faoliyatini yanada samarali qilish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, bank xizmatlari sifatini oshirish, kichik biznes subyektlari bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda tijorat banklarining ish uslublarini tubdan yangilash zarurati yuzaga kelmoqda. Bu jarayon aholining va xo'jalik yurituvchi subyektlarining bank tizimiga nisbatan ishonchini kuchaytirishga ham xizmat qiladi. "...Respublikamiz bank-moliya tizimini isloh qilish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda bank tizimining rolini oshirish imkonini berdi. Shu bilan birga ko'rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini yanada oshirish hamda kichik biznes subyektlari bilan to'laqonli hamkorlik munosabatlarini o'rnatish uchun tijorat banklarining ish uslublarini tubdan yaxshilash, aholi va xo'jalik subyektlarining bank tizimiga ishonchli institutsional hamkor sifatida qarashlarini mustahkamlash vazifalari dolzarb bo'lib qolmoqda" [5].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadbirkorlik subyektlarini tijorat banklari orqali kreditlash masalasi ko'plab olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Nazariy adabiyotlarda ushbu masalaga bir nechta yondashuvlar mavjud: kredit bozorining iqtisodiy mohiyati, tijorat banklarining kredit siyosati, kredit riskini baholash va boshqarish, shuningdek, kichik va o'rta biznesning (KOB) moliyaviy ehtiyojlari o'rganilgan. K. Jensen va W. Mecklingning agentlik nazariyasi kredit beruvchi va kredit oluvchi o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilishda muhim rol o'ynaydi [7]. Ular kredit munosabatlari ichida ma'lumot notekisligi va risklarni kamaytirish mexanizmlarini tavsiflaydilar. Bundan tashqari, J. Stiglits va A. Weissning "ma'lumot notekisligi" nazariyasi tijorat banklarining qarz berish faoliyatini samarali tartibga solish uchun zarur bo'lgan kredit siyosati va monitoring mexanizmlarini

belgilaydi [8].

Tadqiqotlarda tijorat banklarining kredit siyosati — bankning tashkiliy strategiyasi sifatida qaraladi. G. Hubbard va A. O'Brienning ilmiy ishlari kredit portfelini shakllantirish, foiz stavkalari mexanizmlari va kredit shartlarini belgilash bo'yicha yondashuvlarni batafsil tahlil qiladi. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, banklar bozor sharoitlariga moslashgan holda kreditlar portfelini diversifikatsiyalash orqali risklarni kamaytiradilar [9].

Kredit riskini aniqlash va baholash metodologiyalari yuzasidan R. Mertonning kredit risk modellari, shuningdek Altman Z-skori kabi kredit baholash indikatorlari muhim ahamiyatga ega [10]. Ushbu yondashuvlar banklarga kreditor ob'ektning moliyaviy holatini ilg'or metodlar orqali tahlil qilish imkonini beradi.

Tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha Yevropa Ittifoqi, AQSH, Yaponiya va Janubi-Sharqiy Osiyo tajribalari alohida o'rganilgan. Masalan, Mullins va kollegalarining tadqiqotlari kredit jarayonida banklar tomonidan ko'riladigan garov talablari, davlat kafolat mexanizmlari va mikro-kredit tizimlarining samaradorligini yoritadi [11]. Xalqaro tashkilotlar (Jahon banki, IFC) tomonidan chop etilgan hisobotlarda rivojlangan mamlakatlarda Tadbirkorlar uchun maxsus kredit dasturlari va preferensial shartlar bo'yicha misollar keltiriladi.

Tahlil va natijalar. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kichik biznesni kreditlash jarayonida banklar tomonidan kredit riski yuqori baholangan segmentlar ko'p hollarda kredit resurslaridan cheklangan holda foydalanadi. Shu bilan birga, kredit tahlili metodologiyasini takomillashtirish, scoring tizimini keng qo'llash, garov talablarini moslashuvchan qilish bank xizmatlari imkoniyatini kengaytiradi. Davlat tomonidan yaratilayotgan imtiyozli kredit liniyalari, subsidiya va kafolat mexanizmlari esa banklar faoliyati samaradorligini oshiradi.

Kredit iqtisodiy kategoriya sifatida vaqtincha bo'sh mablag'larni qaytishlik, foizlilik, muddatlilik va maqsadlilik tamoyillari asosida qarz oluvchilarga berilishini bildiradi. Tijorat banklari uchun kreditlash jarayoni daromad manbai bo'lsa, kichik biznes subyektlari uchun — investitsion faoliyatni kengaytirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va aylanma kapitalni to'ldirish vositasidir.

Kreditlash tizimi quyidagi asosiy tamoyillarga

tayanadi:

- Qaytariluvchanlik — kredit belgilangan muddatda to'liq qaytishi kerak;
 - To'lovlik — bank uchun foiz daromadi shakllanishi;
 - Muddatlilik — kredit shartnomasida ko'rsatilgan muddatlarda amalga oshirilishi;
 - Maqsadli foydalanish — kredit ajratilgan soha va obyekt bo'yicha sarflanishi;
 - Ta'minlanganlik — kredit xavfini kamaytiruvchi garov yoki kafolat mavjudligi.
- Bu tamoyillar kredit risklarini kamaytirish va kredit portfelining sifatini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.


Kichik biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlashda tijorat banklari quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- kichik biznesni boshlang'ich kapital bilan ta'minlash;
- investitsion loyihalarni moliyalashtirish;
- eksportyor korxonalar uchun imtiyozli kredit liniyalari taqdim etish;
- aylanma mablag'lar yetishmovchiligini bartaraf etish.

Kichik biznes subyektlari xodimlar soni, yillik aylanma hajmi hamda balans qiymati kabi ko'rsatkichlar asosida milliy mezonlarga muvofiq tasniflanadigan xo'jalik yurituvchi subyektlar hisoblanadi. Mazkur mezonlar mamlakatlar kesimida farqlanishiga qaramay, kichik biznesning umumiy belgilari sifatida ishlab chiqarish (faoliyat) ko'lamining nisbatan kichikligi, boshqaruvning moslashuvchanligi hamda bozor sharoitlariga tez moslasha olish qobiliyati e'tirof etiladi.

Zamonaviy iqtisodiy tizimda kichik biznes subyektlari bandlikni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, hududiy iqtisodiyotlarni diversifikatsiya qilish, raqobat muhitini kuchaytirish hamda innovatsion faollikni rag'batlantirishda muhim institutsional drayver sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, kichik biznes subyektlarining moliyaviy resurslarga, xususan bank krediti kabi tashqi moliyalashtirish manbalariga kirish imkoniyati ularning barqaror rivojlanishi, investitsion faolligi va o'sish trayektoriyasini belgilovchi strategik omillardan biri bo'lib qolmoqda. Kichik biznes subyektlarini kreditlash jarayoni oddiy moliyaviy yordam emas, balki puxta o'ylangan strategiyani talab qiladi. Ushbu jarayon bir necha bosqichli yondashuv asosida amalga oshiriladi. Kafolatlar va garovlar hajmini kengaytirishda xavfsizlikni ta'minlash uchun kichik biznes

korxonalariga qo'yiladigan kafolat va garov talablari optimallashtiriladi. Ijtimoiy himoya tizimini shakllantirishda kredit oluvchilarning barqarorligini oshirish va ularni ortiqcha moliyaviy xavflardan himoya qilish zarur. Risklarni aniqlash va boshqarishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tavakkalchiliklarni oldindan baholash va ularni kamaytirish bo'yicha mexanizmlar qo'llaniladi. Inflyatsion kutilmalarni tahlilini ishlab chiqishda bozor sharoitidagi narx o'zgarishlari va inflyatsiya xavflari doimiy ravishda o'rganiladi. Mahsulot bozorini o'rganishda kichik biznes ishlab chiqarayotgan mahsulot va xizmatlarga bo'lgan talab tahlil qilinadi hamda kredit yo'nalishlari shu asosda belgilanadi. Xodimlar javobgarligini oshirishda bank xodimlari va kichik biznes vakillari o'rtasida mas'uliyatni oshirish orqali kredit samaradorligi ta'minlanadi va raqamli texnologiyalardan foydalanishda kreditlash jarayonida zamonaviy raqamli vositalar va elektron xizmatlardan keng foydalanish orqali tezkorlik va shaffoflik oshiriladi. Mazkur strategiya kichik biznes subyektlarini kreditlashda samaradorlikni oshirish bilan birga, ularning iqtisodiyotdagi barqaror rivojlanishiga ham xizmat qiladi (1-rasm).



1-rasm. Tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini kreditlash amaliyotining rivojlanish strategiyasi¹

Xorijiy olimlar tadqiqotlari natijasida tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini kreditlash amaliyoti doirasida o'rganilganlik juhatlari va takliflari ko'rishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval

Tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini kreditlash amaliyoti doirasida xorijlik olimlarning yondashuvlari²

Olimlar	Asar yoki tadqiqot yo'nalishi	Asosiy g'oya va xulosalar	Mavzuga qo'shgan hissasi
Joseph Schumpeter	«The Theory of Economic Development»	Kredit va moliyaviy resurslarning innovatsion faoliyatdagi ahamiyati	Kredit iqtisodiy o'sishni tezlashtiruvchi asosiy omil ekanini ilmiy asoslab bergan
Raymond Goldsmith	«Moliyaviy rivojlanish nazariyalari»	Moliyaviy institutlar va kreditlashning iqtisodiy barqarorlikka ta'siri	Kichik biznes uchun kredit infratuzilmasining ahamiyatini tahlil qilgan
Ronald McKinnon	«Money and Capital in Economic Development»	Kredit bozorining rivojlanishi ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi	Kredit siyosatini liberalashtirish orqali kichik biznesni rivojlantirish mumkinligini ko'rsatgan
Edward Shaw	«Financial Deepening in Economic Development»	Moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash zarurati	Kichik biznesni kreditlash jarayonida bozor mexanizmlarining o'ri haqida nazariy asos yaratgan
Douglas North	«Institutsional rivojlanish nazariyasi»	Iqtisodiy taraqqiyotda moliyaviy institutlar va kredit tizimi muhim	Kreditlash jarayonini samarali tashkil etishda institutsional muhitni muhim omil sifatida ko'rsatgan
Allen & Gale	«Moliyaviy barqarorlik tadqiqotlari»	Bank tizimida raqobat va risklarni boshqarish mexanizmlari	Kichik biznes uchun barqaror kreditlash siyosatini ishlab chiqishda riskni boshqarish muhimligini ta'kidlagan

F.K. Xolmamatovning ilmiy izlanishlarida ta'kidlanishicha, tijorat banklari faoliyatida kreditlardan kelib chiqadigan mumkin bo'lgan zararlarni qoplash uchun ajratiladigan zaxiralarning me'yoriy chegaradan ortib ketmasligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega [4]. Shuningdek, banklarning kredit portfelini diversifikatsiya qilish darajasini oshirish orqali moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash zarurligi ko'rsatib o'tiladi. Olim, ayniqsa, jismoniy shaxslarning kreditga layoqatligini aniqlashda skoring tizimini joriy etishni taklif qiladi. Bu jarayonda «qarzni qoplash ko'rsatkichi»ni asosiy mezon sifatida qo'llash kichik biznes subyektlarini moliyaviy intizomga undaydi, ularning kreditdan foydalanish imkoniyatlarini adolatli baholashga yordam beradi hamda banklar uchun kredit risklarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Mahalliy olimlar tadqiqotlari natijasida tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini kreditlash amaliyoti doirasida o'rganilganlik juhatlari va fikr hamda takliflarini ko'rishimiz mumkin:

2-jadval

Tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini kreditlash amaliyoti doirasida mahalliy olimlarning yondashuvlari³

Olim(lar)	Yondashuv mazmuni	Asosiy fikr va takliflar
M.S.Rustamov (2023-yil).	Kichik biznes subyektlarini kreditlash metodologiyasini takomillashtirish	tijorat banklarida kichik biznesni kreditlash jarayonida kredit risklarini boshqarish mexanizmi takomillashtirilib, risklarni pasaytirishga qaratilgan differensiallashgan kredit shartlari va monitoring usullari ilmiy asoslangan.
A.R.Norov (2022-yil).	Tijorat banklarining tadbirkorlik subyektlarini kreditlash metodologiyasini takomillashtirish	tijorat banklari kreditlash amaliyotiga transformatsiyalash modeli «Ball tizimi» shkalasini qo'llash orqali kredit portfelining sifatini oshirishga va bank daromadiga ijobiy ta'sir qilishi ilmiy asoslangan.
Z.X.Zaxidova (2023-yil).	Tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini kreditlash mexanizmini takomillashtirish	tijorat banklarida kichik biznes subyektlarining kredit ta'minoti sifatini baholash mezonlarini takomillashtirishni taklif etgan.
U.X.Kaxxarov (2024-yil).	Tijorat banklari tomonidan kreditlash mexanizmini takomillashtirish	tijorat banklari tomonidan jalb qilingan depozitlarni muddatlariga ko'ra toifalarga ajratish orqali kredit portfelining eng maqbul me'yorda o'rinishiga olib keluvchi miqdoriy chegarasi asoslangan.
G.S.Bayjanova (2024-yil)	Tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlarini kreditlash amaliyotini takomillashtirish (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida)	raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes subyektlarini kreditlash amaliyotini smart raqamli bank fazasiga transformatsiyalash asosida kreditlash mexanizmini rivojlantirish yonalishlari taklif etilgan.

Kichik biznes subyektlari o'sishi uchun uch narsa hal qiluvchi sanaladi, ular barqaror moliyalashtirish, arzon/uzoq muddatli resurs va maslahat-mentorlashdir. Rivojlangan mamlakatlar bu ehtiyojni to'liq budjet grantlari bilan emas, balki bank tizimi orqali bozorga yaqin mexanizmlar bilan qoplaydi. Bularga davlat riskni bo'lishadi, bozor esa loyihalarni tanlaydi.

Xalqaro tajribadagi asosiy tamoyillari riskni bo'lishishdir. Davlat to'liq kredit bermaydi, balki kafolat, qayta moliyalashtirish yoki sug'urta orqali bankning bir qismini himoya qiladi. «Hausbank» yoki sheriklik modelida mijozni xususiy bank baholaydi, davlat bank ortidan kiradi. Maqsadli, ammo raqobatga xalaqit bermaydigan yordamdir. Imtiyoz foiz stavkasini kuch bilan pasaytirish emas, kafolat to'lovi yoki foiz subsidiyasini nozik sozlash orqali qilinadi. Shaffof mezonlar va monitoringda kredit sifati, ish o'rinlari, eksport, soliqlar tortish bazasi kabi natijalar o'lchanadi.

O'zbekistonda iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbolida eng muhim omillardan biri rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribasini chuqur o'rganib, uni mahalliy sharoitga moslashtirishdir. Bunda faqatgina umumiy yondashuv emas, balki amaliy mexanizmlarni tahlil qilib, ularni kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatiga mos ravishda qo'llash alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ayniqsa tijorat banklarining kreditlash tizimini samarali yo'lga qo'yish kichik

biznes subyektlari uchun katta imkoniyat yaratadi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, kreditlash jarayonini qonunchilik darajasida qat'iy me'yorlar bilan tartibga solish, banklar faoliyatini moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga yo'naltirish va kichik biznes uchun maxsus kredit liniyalarini joriy etish iqtisodiy o'sishga sezilarli hissa qo'shadi.

Kichik biznes subyektlarini bank kreditlari orqali moliyalashtirishning xorijiy davlatlar tajribalarini kuzatadigan bo'lsak, kafolat ulushi 50–85 foiz atrofida

«normal holat», inqiroz/ustuvor yo'nalishlarda 90–100 foizgacha. AQSh (7a), Germaniya (KfW) va Singapur (EFS)da standart risk-share 50–80 foiz diapazonda. Buyuk Britaniyada GGS 70 foiz, Yaponiya va Koreyada esa favqulodda yoki maqsadli dasturlar 90–100 foizgacha ko'tariladi. Qarzdor 100 foiz javobgar bo'lib qoladi bu, ayniqsa, GGS va EFSda aniq qayd etilgan me'yor bo'lib, axloqiy tavakkalchilikni kamaytiradi. Maxsus institutlar orqali «bir darcha» KfW (DE), Bpifrance (FR), British Business Bank (UK), EnterpriseSG (SG), KODIT/KIBO (KR) kabi agentliklar tavakkalni bo'lishish, qayta moliyalash, ma'lumot infratuzilmasi va monitoringni birlashtiradi. Koreyada KIBO/KODIT texnologik va kredit reytinglari hamda onlayn jarayonlar (ON-Biz) orqali tez kafolat beradi bu banklar uchun tranzaksiya xarajatini keskin kamaytiradi.

Xulosa. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlarini kreditlash jarayoni bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy faollikni oshirish, investitsion muhitni yaxshilash va kichik hamda o'rta biznesning barqaror rivojlanishini ta'minlashning eng muhim omillaridan biridir. Nazariy-metodologik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kreditlash mexanizmi samaradorligi ko'p jihatdan banklarning kredit siyosati, risklarni baholash metodlari, garov instituti, foiz stavkalarini shakllanishi va kredit portfeli sifati kabi omillar bilan belgilanadi.

Stiglitz–Weiss, Jensen–Meckling, Merton kabi iqtisodchilar tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy nazariyalar kredit bozorida axborot assimetriyasi, kredit xavfi va qarz oluvchi xatti-harakatining iqtisodiy mohiyatini chuqur yoritadi. Ushbu nazariyalar asosida zamonaviy bank amaliyotida risklarni baholashning matematik modellari, garov va kafolat mexanizmlarini takomillashtirish, foiz stavkalarini shakllantirishda bozor signallaridan

foydalanish kabi yondashuvlar shakllangan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlik subyektlarining kreditga bo'lgan ehtiyoji doimiy o'sib bormoqda, biroq ularning bank kreditlariga kirish imkoniyati ko'p hollarda garov talablarining qattiq bo'lishi, moliyaviy hisobotlarning yetarli emasligi, kredit tarixining sustligi kabi omillar bilan cheklanadi. Shuning uchun ham rivojlangan davlatlar tajribasiga tayangan holda davlat kafolatlari, kredit sug'urtasi, lizing va faktoring kabi moliyaviy vositalarni keng joriy etish mazkur jarayon samaradorligini oshiradi.

Umuman olganda, tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlarini kreditlashning nazariy-metodologik asoslarini chuqur o'rganish kredit siyosatini takomillashtirish, risklarni boshqarish tizimini modernizatsiya qilish, moliyaviy inklyuziyani kengaytirish va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur yo'nalishda tizimli islohotlarni davom ettirish tadbirkorlik muhitini yanada rivojlantiradi va raqobatbardosh iqtisodiyot shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://www.un.org/en/observances/micro-small-medium-businesses.com> - rasmiy sayt ma'lumotlari.
2. <https://webapps.ilo.org/infostories/en-GB/Stories/Employment.com> - rasmiy sayt ma'lumotlari.
3. <https://www.ifac.org/knowledge-gateway/discussion/foundation-econo-mies-worldwide.com> - rasmiy sayt ma'lumotlari.
4. Обзор сферы услуг Западных стран. http://aftershock.news/politeconomica.ru/feb_2013/malyj-biznes.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentabrdagi "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3270-sonli qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 25.09.2017y., 07/17/3270/0004
6. Xolmamatov F.K. "Tijorat banklarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish" mavzusidagi iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2019 y. 8-9 b.
7. Jensen M. C., Meckling W.H. Theory of the firm: Managerial behavior, agency costs and ownership structure. *Journal of Financial Economics*, 3(4), 1976, 305–360.
8. Stiglitz J.E., Weiss A. Credit rationing in markets with imperfect information. *The American Economic Review*, 71(3), 1981. 393–410.
9. Hubbard R.G., O'Brien A.P. Money, banking, and the financial system (3rd ed.). Pearson. 2019.